

ТА'LIMDAGI MUAMMOLAR

Bo‘riyeva Madina Odiljon qizi

Sirdaryo viloyati Guliston davlat universiteti

“Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek) tili” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotation: Ushbu maqolada, ta’lim tizimida kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo’llar, metodlar va bosqichlari haqida so’z yurutilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, ta’lim tizimi, tizim muammolari, metodlar, chora-tadbirlar, bartaraf etish bosqichlari.

Annotation: This article talks about the problems observed in the educational system and ways, methods and stages of their elimination.

Key words: education, education system, system problems, methods, measures, stages of elimination.

Аннотация: В данной статье рассказывается о проблемах, наблюдаемых в системе образования и путях, методах и этапах их устранения.

Ключевые слова: образование, система образования, системные проблемы, методы, меры, этапы ликвидации.

Bizga ma’lumki, barcha tizimlarda ham muammolar bo’lib turadi, misol uchun, texnika asrida ekanimizni nazarda tutgan xolda, sistemada ishlovchi qurilmalar, ular ham bazida tizimdan chiqib qolgan xolda noto’g’ri ishlashi mumkin, ammo ta’lim tizimi eng muhim ahamiyatga molik tizimlar qatorida turadi. Ta’lim bu jamiyat va davlatning bir bo’g’ini sanalib, u davlat uchun, davlat rivoji uchun yetarli va malaakli kadrlar tayyorlovchi bo’gining bir qismidir, huddi davlat bosh bo’lsa, unga bo’yin bo’lgani kabi. Ta’limda oddiy hodimlar va oddiy tolib va tolibalar tehsil oladilar, ish yuritadilar.

Ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim, maktab, kollej, litsey, universitet va institutlar kiradi. Asosan, maktabgacha ta’limda kuzatilishi mumkin bo’lgan muammolardan biri bu - malakasiz hodimdir, malakasiz hodim o’z faoliyati davomida tarbiya beruvchi bolaning ham tarbiyasi va dunyo qarashini salbiylikga yo’naltirib qo’yishi mumkin.

Maktablarda ilmiy muhitning yo’qligi malakali kadrlar yetishmovchiligidagi va malakasiz kadrlarning ko’pligiga olib keladi. Maktablarda o’qituvchilar o’z ustida ishlamay qo’yan. Ko’p miqdordagi iqtidorli insonlar yo maktabni tark etadi yo iqtidori ochilmay qolib ketadi.

Amaldagi ta’lim tizimimizda o’qituvchining darsi qanchalik sifatli ekanligini baholashing samarali mezonlariyaratilmagan.O’qituvchilar tashkiliy masalalar bilan o’ralashib qolgan.

Qanchalik xunuk eshitilmasin, tan olishga majburmiz: dars ikkinchi darajali narsaga aylanib qolgan.

Mazmunga emas, shaklga qaraladi. Pedyuklamalar, plakatlar, ko'rgazmali qurollar. Ro'yxatni ancha davom ettirish mumkin.

Sir emas, ayrim hollarda (doim emas) komissiya a'zolari borgan joyida hammaga tanbeh berib, obro' orttirishga intiladi. Maqsad kamchilikni bartaraf etish emas, aybdorlarni jazolash bo'lib qoladi. Ba'zida mutlaqo mantiqqa zid gaplar ham bo'ladi. Menga ham bunga o'xshash voqeani aytib berishgan, rostdan bo'lganmi - yo'qmi, bilmayman.

Har holda, ishonib bo'lmas vaziyat emas. Maktabga komissiya keldi. Biologiya darsi. Bashang kiyingan, o'zini jiddiy tutayotgan komissiya vakili darsni kuzatar ekan, yosh muallim Sardorga tanbeh bera boshladi.

- Domla, nega dars paytida ko'rgazmali qurollardan foydalanmayapsiz?

- Bugun dars mavzusi "Ko'payish". Qanaqa ko'rgazmali quoldan foydalanishim mumkin?

Oliy o'quv yurti. Sessiya. Ustoz talabaga:

- Qanday qilib senga "5" qo'yaman? Oraliq nazorat imtihonida 3 ta savolga daftarning yarmini to'ldirib javob yozibsan, xolos-ku. (Miya bo'm-bo'sh bo'lsa ham, daftarlar to'ldirilgan bo'lsin.)

Binolar yangicha, tizim eskicha. Fikrlash XX asr o'rtalarida qanday bo'lsa, shunday. O'qituvchi kutadigan yagona to'g'ri javob bor. O'shani topgan talabaga "besh". Talabaning shaxsiy fikri bo'lishi ta'qiqlanadi. Baholash mezoni bilim emas, miqdor va itoat. Galstuging yo'qmi, demak, yaxshi o'qimaysan. Mutaxassislarni emas, itoatgo'y xodimlarni tayyorlaymiz. Oliy o'quv yurtlarimizdagi holat achinarli.

Sifatsiz ta'lif ildizlari ancha chuqurroq. Qog'ozbozlik va hasharbozlik "o'lganing ustiga tepgan" bo'lyapti, xolos. Tepmay qo'ygan bilan, o'lik tirilmaydi.

Bolalar maktab hamda kollejga majburligidan boradi. Talabalarning universitetga borishdan maqsadi faqat diplomli bo'lish. Iloji bo'lsa, umuman o'qishga bormay, baho olib yursa. O'quvchilarda o'rganishga qiziqish yo'q. Borlarida ham katta sinfga o'tgan sari qiziqish kamayib boraveradi. Bu endi iqtisodiyot darajasi bilan bog'liq. Yuqori malakali kadrga bizda yaxshi haq to'lanmaydi. Ba'zida hatto u ishga olinmaydi, ham. Umuman ish beruvchi, hoh u davlat bo'lsin, hoh xususiy tashkilot, eng sara kadrlarni ishga olishga intilmaydi. Bozor raqobati muhiti to'la shakllanmagan. Shu bois ham, ishning sifatini oshirishga, demakki, eng zo'r kadrlarni jalg qilishga harakat qilinmaydi. O'z-o'zidan ota-onalar farzandining bilimli, saviyasi baland bo'lishiga ko'pam intilishavermaydi. Ta'limdag'i eng katta muammo aynan mana shu. Agar aholida ta'limga ehtiyoj yuqori darajada bo'lganida, ular bilimni izlab topishardi. Ular bilimli o'quvchilarni qadrangan bo'lishardi. Ular baho olishga emas, bilim olishga qiziqqan bo'lishardi. Ular o'quvchidan yaxshi darsni talab qilib olgan va shunga yarasha haq

ham to'lashga tayyor bo'lishardi. Avallari maktab bilim olishning qariyb yagona manbai bo'lgan, kitoblar ham o'sha yerda, muallim ham. Hozirgi Google va Wikipediya davrida maktab va o'qituvchining vazifalari birmuncha o'zgarmadimikan? Muallim, demakki o'quv yurti ham ma'lumot manbai sifatidagi o'z ahamiyatini tobora yo'qotib bormoqda. Bizda hali Internet tezligi maqtagulik bo'limgani tufayli bu narsa unchalik yaqqol ko'zga tashlanmayapgandir. Lekin bu vaqt masalasi, xolos. Agar o'quvchi bilimni muallimsiz qidirib topish imkonи bo'lsa, unda ustoz oldidagi vazifa nima? Men 4 ta asosiy vazifani ko'rsatgan bo'lardim:

- 1.Qiziqtirish
- 2.To'g'ri yo'nalish berish
3. Fikrni tarbiyalash
4. Motivatsiya uyg'otish

Motivatsiya masalasiga alohida to'xtalib o'tsam. Shu yerida juda katta kamchiliklarimiz ko'zga tashlanadi. Maktabdanoq o'quvchilarni faqat tanbeh yoki maqtov yordamida tarbiyalaymiz. "Qamchi va pryanik" uslubidan boshqasiga yo'erinamiz, yo aqlimiz yetmaydi.

Vaholanki, bolaning o'zidagi ishtiyoqni kuchaytira olish zarur. Farzandlarimiz ustozdan dakki eshitmaslik uchun yoki maqtov eshitish uchun o'qiydi. Fanning o'ziga bo'lgan qiziqish so'nib qoladi. Shu usulda tarbiya olgan kadrlar keyinchalik qaysi sohada ishlasa ham "qullik falsafasi"ga tayanib yashovchi, o'zidan yuqori odamga o'ylamay-netmay bo'y sunuvchi, oz'idan quyidagini esa bir tiyinga olmaydigan manqurtga aylanadi-qoladi.

Bilamizki, ona tilida ko'p so'zlarni bilgan shaxs, nutqi chiroyli bo'ladi, nutqi chiroyli bo'lgan inson ko'p ma'lumotlarni ovoz bilan o'qishga intiladi, o'quvchilarni ta'limga qiziqtirish yo'nalishlari, aynan mana shu nuqtadan boshlanishi mumkin, agar talaba shunday nutqi ravon bo'lsa, unga ko'p qiziqarli va foydali ma'lumotlarni ma'ruza qildirgan ma'qul. Nutqi chiroyli bo'lgan insonni esa atrofidagilar tinglagisi keladi. Filologiya ta'lim yo'nalishida ona tiliga bo'lgan talab foimiy yuqori cho'qqilarda turadi, ammo hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqlar, turli ma'lumot ba'zalariga ega bo'lgan saytlar o'rganuvchilarni va ta'lim tizimidagi shaxslarni dangasa qilib qo'ymoqda, bilim ijtimoiy tarmoqlarda yoki internet sahifalarida emas, balki, inson ongida namoyon bo'lishi lozim.

Til o'rgatish jarayonida, o'rganuvchi ko'p so'zlarni sinonimlari va tuzulishlari bilan o'rganishni xohlaydi, ana shundagina u o'z fikrini ravon va chiroyli so'zlab berish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

Ona tilimiz shunday boy tilki, tarixdan nazar solib keladigan bo'lsak bir so'zning 10 tadan oshiq ma'nosi mavjud, chunki adabiyot olamida uchratgan va o'rgangan ko'p muallif va yozuvchilarimiz o'z davrida foydalangan so'zlarini qimmatli asarlarida yozib qoldirganlar, ularning asarlarini o'qir ekanmiz, murakkablik darajasi, huddi

inhлиз тилда со'злар даржаларга бо'лингани каби, С1 юки С2 даряja ко'rsatkichida bo'ladi, misol uchun murakkab qismli g'azallarni oladigan bo'lsak, ularda juda ko'p murakkab jumlalar mavjud.

Ta'lim tizimida, ta'lim vazirligi, ta'lim obyekti, u yerdagi hodimlar, saboq oluvchilar va ularning ota onalari doimiy qaysidur tashkilot tomonidan nazoratda turishi lozim, chunki, hozirgi ota-onalar o'z farzandlarini og'zi bilan tug'ishyapti. Ilgarilari, ota-onalar farzandlariga qattiq qo'l bo'lganlari sabab ular ko'p bilimli va tarbiyali bo'lishgan. Hozirgi yoshlarni qancha erkalasang boshinga chiqib oladi. Erkalash ham kerak, ammo barcha omillarni me'yori bo'lgani ma'qul. Bolalarga yoshlikdan kiotbga mehr qo'yishni o'rgatish lozim. Ta'lim sohasida ko'p o'zgartirishlar kiritilgani bilan birga, odob va ahloqga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini qayta tiklash ancha muncha vaqt ni oladi. Ammo, uni boshqara olish har doim o'z qo'limizda bo'lgan, undagi muammolarni bartaraf etish, metodlardan foydalanish barcha usullar samarali foyda berishi mumkin. Ta'limda yumshoqlik ko'p ham foyda bermaydi, bu tizim davlatning jon tomiriga o'xshash, o'ta muhim tomirlardan biri. Sovet davrida ham bizni millatchiligidan poymol qilish niyatida bo'lgan turli shaxslar bore di, ammo qatag'onga uchragan bobolarimiz tizimni saqlab qolish yo'lida jon fido etganlar, ular o'sha davrda, hozirgi ta'lim tizimini ham saqlab qolish uchun jon fido etgandirlar. Afsuski, ularning qadr qimmatlarini unutgan ba'zi davlatimiz jamiyat a'zolari ta'lim tizimini, bir so'z bilan aytganda, oz muddatda ishdan chiqarishdi. Bu esa bizning davlatimiz kelajagi va ravnaqi yo'lida. Sovet sotsialistlari qilgan daxshatli ishlardan ham daxshatlidir. BU achinarli holat. Bunday ta'lim tizimi, biz o'zbeklar uchun eng sharmandali holatlardan biri hisoblanadi. To'g'ri maktablarni davlat tasarrufida qayd etilib, tekinga ta'lim berish faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsada, 'Tekin sho'rva tatimas' nomli ibora esimizga tushadi.

Ta'lim tizimini yanayam mukammallashtirish, uni juda sifatli asosga aylantirish bir yoshlarni va ta'lim hodimlarining qo'lida ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'limdagি to'rt muammo. <http://murabbiy.blogspot.com/p/talimdagi-tort-muammo.html>
2. O'zbekistonda ta'lim islohotlari. <https://www.econferences.ru/index.php/mmms/article/download/574/466>
3. Maktabgacha ta'limni boshqarish. <https://e-library.namdu.uz/Namdu%20Professor%20O'quvchilar/%D0%9C%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B0%D0%B1%D0%B3%D0%B0%D1%87%D0%B0%20%D1%82%D0%B0%D1%8A%D0%BB%D0%B8%D0%BC/BOSHQARUV%20%20UMKA%202-semestr%201-%D0%BA%D1%83%D1%80%D1%81.doc>
4. Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/acts/-3171590>